

SAMARQAND VILOYATIDA TRANSPORT SOHASINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI VA AMALIY NATIJALAR

Ukliyev Abbos Aktam o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti MM2-IQ-25 guruh magistri

Ilmiy rahbar: Sodiqova Nigora Turayevna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Samarqand viloyatida transport sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning strategik yo'nalishlari hamda erishilgan amaliy natijalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda jamoat transporti tizimini modernizatsiya qilish, avtovokzal va avtostansiyalar infratuzilmasini rivojlantirish, temiryo'l qatnovlarini kengaytirish, raqamli texnologiyalar va elektron to'lov tizimlarini joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola viloyatda transport xizmatlari sifati oshib borayotganini, yo'lovchi tashish hajmi barqaror o'sayotganini hamda transport tizimining hududiy va turistik rivojlanishga ijobiy ta'sirini asoslab beradi.*

Kalit so'zlar: *transport strategiyasi, jamoat transporti, avtovokzal va avtostansiya, temiryo'l infratuzilmasi, raqamli texnologiyalar, elektron to'lov, Samarqand viloyati.*

Hududiy iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini ta'minlashda transport tizimining o'рни beqiyosdir. Zamonaviy va samarali transport infratuzilmasi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi, mehnat resurslari harakatchanligini oshiradi hamda turizm salohiyatining to'liq ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, Samarqand viloyatida transport sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Samarqand viloyatida jamoat transporti tizimining hozirgi holati. Bugungi kunda viloyatda 314 ta yo'nalishda 3 365 ta transport vositasi aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, 26 347 nafar fuqaro o'zini-o'zi band qilgan holda 27 319 ta transport vositasi bilan yo'nalishsiz taksi sifatida faoliyat yuritmoqda. Muntazam yo'nalishlarda harakatlanayotgan transport vositalarining 17,2 foizi avtobuslar, 5,2 foizi mikroavtobuslar hamda 60 foizi "Damas" rusumli avtomobillardan iborat.

Yo'lovchi tashish sohasida 70 ta yuridik shaxs hamda o'nlab tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritib, aholini transport xizmati bilan ta'minlamoqda. 2025 yil davomida aholi

ehtiyojlari va takliflaridan kelib chiqib, qishloqlarni tuman markazlari va viloyat markazi bilan bog'lovchi 10 ta yangi yo'nalish ochildi va ularga tender asosida 32 ta transport vositasi biriktirildi.

Yo'lovchi tashish hajmining o'sishi va infratuzilma loyihalari. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024 yilning dastlabki 10 oyida viloyatda 82,4 million nafar yo'lovchi tashilgan bo'lsa, 2025 yilning mos davrida bu ko'rsatkich 101,0 million nafarga yetib, xizmat hajmi 18,4 foizga oshgan. Ushbu o'sish transport infratuzilmasini kengaytirish va xizmat sifatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligini ko'rsatadi.

Viloyatda avtovokzal va avtostansiyalar qurish borasida ham muhim loyihalar amalga oshirildi. Cho'pon-Ota massivida barpo etilgan zamonaviy avtovokzal viloyatning asosiy transport xabiga aylanishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu avtovokzal orqali shahar, shahar atrofi, viloyatlararo hamda xalqaro avtobus qatnovlari yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, Motrid qo'rg'oni hududida yangi avtostansiya ishga tushirildi hamda shahar atrofida yana bir nechta avtostansiyalarni barpo etish ishlari olib borilmoqda. Ushbu choralar natijasida Samarqand shahriga kirib keluvchi avtomobillarning qariyb 30 foizini shahar tashqarisida to'xtatish imkoniyati yaratilmoqda.

Temir yo'l va ekologik transportni rivojlantirish. Urgut tumanining ishlab chiqarish va demografik salohiyatini hisobga olgan holda 55 km masofada yangi temiryo'l yo'nalishi foydalanishga topshirildi va "Urgut-Samarqand-Urgut" yo'nalishi bo'yicha yo'lovchi poyezdi qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu nafaqat hududning eksport salohiyatini oshirdi, balki avtomobil transportiga tushayotgan yuklamani kamaytirishga ham xizmat qildi.

Samarqand shahrida jamoat transporti parkini yangilash doirasida 300 ga yaqin zamonaviy avtobus xarid qilindi, shundan 100 tasi ekologik toza elektrobuslardir. Kelgusida elektrobuslar ulushini yanada oshirish rejalashtirilgan bo'lib, bu shahar ekologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar va xizmat sifati. Transport sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim natijalardan biri bo'ldi. Samarqand shahrida transport bosh rejasi ishlab chiqilib, 43 ta yo'nalish shakllantirildi va ularning 22 tasi brutto shartnoma tizimiga o'tkazildi. Avtomatlashtirilgan dispetcherlik markazi orqali avtobuslar harakati real vaqt rejimida monitoring qilinmoqda.

Shuningdek, to'liq elektron to'lov tizimi joriy etilib, bank kartalari, ATTO yagona transport kartasi va QR-kodli chiptalar orqali to'lov qilish imkoniyati yaratildi. Elektron to'lovlar ulushi 50 foizga yetdi, bu esa yashirin iqtisodiyotning oldini olish va tizim shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyatida transport sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan strategik chora-tadbirlar jamoat transporti samaradorligini oshirish, yo'lovchi tashish hajmini ko'paytirish va hududiy hamda turistik rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy infratuzilma, ekologik transport vositalari va raqamli texnologiyalar uyg'unligi viloyat transport tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

REFERENCES

1. Sodiqova, N. (2024). Iqtisodiyotni Modernizatsiyalash Sharoitida Innovatsion Siyosat Va Uning Shakllanish Xususiyatlari. Modern Science And Research, 3(6).
2. To'rayevna, S. N. (2024). Korxona Faoliyatida Innovatsiyalarni Boshqarishning Xorij Tajribasidan Foydalanish Imkoniyatlari.
3. To'rayevna, S. N. (2024). Tadbirkorlik Sohasini Malakali Kadrlar Bilan Ta'minlashning Asosiy Yo'nalishlari.
4. Sodiqova, N. (2024). Korxonalarda Innovatsion Loyihalarni Baholash Tartibi Va Tanlash Usullari. Modern Science And Research, 3(6).
5. Sodiqova, N. (2024). Korxonada Innovatsiyaning Mohiyati Va Uning Asosiy Tushunchalari. Modern Science And Research, 3(6).
6. To'rayevna, S. N. (2024). Korxonalarda Innovatsion Loyihalarni Baholash Tartibi Va Tanlash Usullari.
7. To'rayevna, S. N. (2024). Iqtisodiyotni Modernizatsiyalash Sharoitida Innovatsion Siyosat Va Uning Shakllanish Xususiyatlari.
8. Turayevna, S. N. (2024). Человеческий Капитал Как Главный Фактор Генерации Экономического Развития В Узбекистане. Miasto Przyszłości, 54, 848-856.
9. Sodiqova, N. T. R. (2024). Korxonada Kadrlar Siyosatini Oqilona Tashkil Etish Yo'nalishlari. Gospodarka I Innowacje, 51, 54-62.
10. Turayevna, S. N. (2024). The Effect Of Labor Promotion On Work Efficiency. Gospodarka I Innowacje., 49, 142-147.
11. Sodikova, N. (2024). The Main Directions Of Providing The Business Sector With Qualified Personnel. Modern Science And Research, 3(1), 133-139.

12. Sodiqova, N. (2024). Tadbirkorlik Sohasini Malakali Kadrlar Bilan Ta'minlashning Asosiy Yo'nalishlari. Modern Science And Research, 3(1), 123-132.

13. Sodikova, N. T. (2024). Promotion Of Labor Productivity Growth In The Enterprise As A Basic Condition. Bulletin News In New Science Society International Scientific Journal, 1(3), 188-198.

14. To'rayevna, S. N. (2024). O'zbekistondagi Xususiy Tadbirkorlikni Rivojlantirishda Aholini Ish Bilan Bandligini Tashkil Etishning Innovatsion Xususiyatlari. Scientific Journal Of Actuarial Finance And Accounting, 4(08), 113-118.

15. Sodiqova, N. T. (2025). Ways To Enhance Company Competitiveness. Ethiopian International Journal Of Multidisciplinary Research, 12(01), 145-150.

16. Sodiqova, N. (2024). Korxonalarda Innovatsion Loyihalarni Baholash Tartibi Va Tanlash Usullari. Modern Science And Research, 3(6).

17. Sodiqova, N. (2024). Korxonada Innovatsiyaning Mohiyati Va Uning Asosiy Tushunchalari. Modern Science And Research, 3(6).

18. Turayevna, S. N. (2024). The Effect Of Labor Promotion On Work Efficiency. Gospodarka I Innowacje, 49, 142-147.

19. Sodikova, N. (2024). The Main Directions Of Providing The Business Sector With Qualified Personnel. Modern Science And Research, 3(1), 133-139.

20. Sodiqova, N. (2024). Tadbirkorlik Sohasini Malakali Kadrlar Bilan Ta'minlashning Asosiy Yo'nalishlari. Modern Science And Research, 3(1), 123-132.

21. Sodiqova, N. T. (2025). Ways To Enhance Company Competitiveness. Ethiopian International Journal Of Multidisciplinary Research, 12(01), 145-150.

22. To'rayevna, S. N. (2024). O'zbekistondagi Xususiy Tadbirkorlikni Rivojlantirishda Aholini Ish Bilan Bandligini Tashkil Etishning Innovatsion Xususiyatlari. Scientific Journal Of Actuarial Finance And Accounting, 4(08), 113-118.

23. Sodikova, N. T. (2024). Promotion Of Labor Productivity Growth In The Enterprise As A Basic Condition. Bulletin News In New Science Society International Scientific Journal, 1(3), 188-198.

24. To'rayevna, S. N. (2024). Korxonalarda Innovatsion Loyihalarni Baholash Tartibi Va Tanlash Usullari.

25. To'rayevna, S. N. (2024). Iqtisodiyotni Modernizatsiyalash Sharoitida Innovatsion Siyosat Va Uning Shakllanish Xususiyatlari.

26. To'rayevna, S. N. (2024). Texnologiya Diskursi Va Yangi Media Siyosiy Iqtisodiyoti.

27. Sodiqova, N. T. R. (2024). Korxonada Kadrlar Siyosatini Oqilona Tashkil Etish Yo'nalishlari. Gospodarka I Innowacje, 51, 54-62.

28. Sodiqova, N. (2024). Iqtisodiyotni Modernizatsiyalash Sharoitida Innovatsion Siyosat Va Uning Shakllanish Xususiyatlari. Modern Science And Research, 3(6).

29. To'rayevna, S. N. (2023). Yangi Iqtisodiyotda Raqamli Mehnat.

30. Sodiqova, N. T. (2025). Iqtisodiyotni Raqamlashtirishning Zamonaviy Tendensiyalari. Modern Science And Research, 4(4).

31. Sodiqova, N. (2025). Methodology For Developing Students' technical Thinking In Economics Lessons. Journal Of Multidisciplinary Sciences And Innovations, 1(3), 674-678.

32. Sodiqova, N. T. (2025). Raqamli Iqtisodiyoti Sharoitida Innovatsion Texnologiyalar Asosida Tadbirkorlik Faoliyatini Rivojlantirish Istiqbollari. Modern Science And Research, 4(4), 561-570.

33. To'rayevna, S. N. (2023). Iqtisodiy Xavfsizlik Bo'yicha Siyosiy Iqtisod Tahlili.

34. Sodiqova, N. T. (2025). Kichik Biznes Va Xususiy Tadbirkorlikni Iqtisodiyotda Tutgan O'рни. Modern Science And Research, 4(4), 589-595.